# ҚАРАҚАЛПАҚСТАН РЕСПУБЛИКАСЫ ХАЛЫҚ БИЛИМЛЕНДИРИЎ МИНИСТРИНИҢ БУЙРЫҒЫ

**2020-2021-оқыў жылында улыўма билим бериў мектеплери, академиялық лицейлер ҳәм кәсип-өнер мектеплериниң оқыўшылары арасында Пән олимпиадасының IV (республика) басқышын шөлкемлестириў ҳәм өткериў ҳаққында**

Өзбекстан Республикасы Президентиниң 2019-жыл 3-майдағы «Қәбилетли жасларды анықлаў ҳәм жоқары жетик кадрлар таярлаўдың үзликсиз системасын шөлкемлестириў ис-иләжлары ҳаққында»ғы ПК-4306-санлы қарарының орынланыўын тәмийинлеў ҳәм де улыўма билим бериў мектеплери, академиялық лицейлер ҳәм кәсип-өнер мектеплериниң оқыўшылары арасында Пән олимпиадасының IV (республика) басқышын жоқары дәрежеде өткериў мақсетинде Өзбекстан Республикасы Халық билимлендириў министрлиги, Өзбекстан Республикасы Жоқары ҳәм орта арнаўлы билимлендириў министрлиги, Министрлер Кабинети жанындағы Президент, дөретиўши, қәнигелестирилген мектеплерди раўажландырыў агентлиги ҳәм де Мәмлекетлик тест орайының қоспа қарарында белгиленген ўазыйпалардың орынланыўын тәмийинлеў мақсетинде **буйыраман:**

1. Өзбекстан Республикасы Халық билимлендириў министрлиги, Өзбекстан Республикасы Жоқары ҳәм орта арнаўлы билимлендириў министрлиги, Министрлер Кабинети жанындағы Президент, дөретиўши, қәнигелестирилген мектеплерди раўажландырыў агентлиги ҳәм Мәмлекетлик тест орайының 2021-жыл 14-апрельдеги “2020-2021-оқыў жылында улыўма билим бериў мектеплери, академиялық лицейлер ҳәм кәсип-өнер мектеплериниң оқыўшылары арасында Пән олимпиадасының IV (республика) басқышын шөлкемлестириў ҳәм өткериў ҳаққында”ғы 31-qq, 528-к/қ, 38, 04/кқ-санлы қоспа қарары басшылыққа алынсын ҳәм орынланыўы тәмийинленсин.

2. Жоқарыдағы қоспа қарар менен:

2020-2021-оқыў жылында улыўма орта билим бериў мектеплери, академиялық лицейлер ҳәм кәсип-өнер мектеплериниң оқыўшылары арасында Пән олимпиадасының (кейинги орынларда олимпиада деп жүритиледи) IV (республика) басқышы пәнлер бойынша белгиленген ўәлаятларда өткерилиўи;

олимпиаданың IV (республика) басқышын шөлкемлестириў ҳәм өткериў бойынша Республикалық шөлкемлестириў комитети қурамы (кейинги орынларда Шөлкемлестириў комитети деп жүритиледи) 2-қосымшаға муўапық;

олимпиаданың IV (республика) басқышын өткериўде улыўма билим бериў пәнлери бойынша баҳалаў критериялары 3-қосымшаға муўапық тастыйықланғанлығы;

Мәмлекетлик тест орайының Тест сынаўларын шөлкемлестириў ҳәм муўапықластырыў бас басқармасы (Ф.Мирзайев), Тест технологияларын раўажландырыў басқармасы (У.Дусназаров)на:

Пәнлер бойынша тест тапсырмаларын қәлиплестириў;

Тест материалларының белгиленген мүддетте тест өткерилетуғын аймақларға жеткериў;

1-қосымшада белгиленген мүддетте ҳәм орынларда олимпиада қатнасыўшылары ушын тест сынаўларын шөлкемлестириў ҳәм сол күнниң өзинде тест нәтийжелерин жәриялаў ўазыйпалары жүклетилгенлиги;

Халық билимлендириў министрлигиниң Қадағалаў-ҳуқуқый хызмети (И.Тораев) республика шөлкемлестириў комитети менен биргеликте олимпиада даўамында әдалатлы ҳәм коррупция жағдайларының алдын алыў бойынша қадағалаў орнатыў ҳәмде нызам бузылыўы жағдайлары бойынша әмелдеги нызам талапларына муўапық тийисли шаралар көриў ўазыйпаларының жүклетилгенлиги мағлыўмат ушын қабыл етилсин.

**3.** Бухгалтериялық есабат ҳәм мәмлекетлик буйыртпалар бөлими (Г.Бекмуратова)не Республика олимпидасының IV басқышына қатнасыўшы оқыўшылар ҳәм жуўапкерлер ушын ислеп шығылған смета тийкарында тийисли қаржылар менен тәмийинлеў иләжларын көриў тапсырылсын.

**4.** Республикалық оқыў-методикалық орайы (Қ.Жубанов)на:

республика олимпиадасына қатнасыўшы оқыўшылар ҳәм олардың барып-қайтыўында қәўипсизлигин тәмийинлеўши жуўапкерлерди бекитиў;

**2021-жылдың 26-апрель сәнесине шекем** Республика олимпидасының IV басқышына қатнасыўшы оқыўшылар ҳәм жуўапкерлер ушын смета қәрежетлерин ислеп шығыў ҳәм тастыйықлатыў**;**

улыўма билим бериў пәнлери бойынша Республика олимпиадасының IV басқышында қатнасыўшы оқыўшыларды 27-31-май күнлери аралығында өткерилетуғын жуўмақлаўшы мәмлекетлик имтиханларынан орнатылған тәртипте азат етиў;

республика олимпидасының 4 (республика) басқышында сыйлықлы орынларды ийелеген ҳәм белсене қатнасқан оқыўшыларды материаллық ҳәм мораллық жақтан хошаметлеў бойынша усыныс киритиў ўазыйпалары тапсырылсын.

**5.** Барлық район (қала)лық халық билимлендириў бөлимлери баслықлары, Нөкис қаласы 10-санлы арнаўлы мектеп-интернат директорына:

III басқыш жуўмағында 11-класс оқыўшылары арасынан жеңимпаз болған оқыўшыларды IV басқышқа таярлаў мақсетинде район (қала)дағы ең тәжирийбели муғаллимлерди бекитиў;

арнаўлы мектеп-интернатынан қатнасыўшы оқыўшылардың қәўипсизлигин тәмийинлеў мақсетинде Ташкент қаласына алып барып-алып қайтыўда бир жуўапкер хызметкер бекитиў;

Өзбекстан Республикасы Халық билимлендириў министрлиги тәрепинен ислеп шығылған улыўма билим бериў пәнлери бойынша баҳалаў критерияларын барлық билимлендириў мәкемелерине жеткерип бериў ўазыйпалары тапсырылсын.

**6.** Министрликтиң Баспасөз хызмети (Т.Даулетмуратов)не пән олимпиада даўамында жетискенликке ерискен оқыўшыларды ғалаба-хабар қураллары ҳәм социаллық тармақлар арқалы кең түрде жарытылып барылыўын тәмийинлеў усыныс етилсин.

**7.** Усы буйрықтың орынланыўын қадағалаўды Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириў министриниң биринши орынбасары ў.ў.а. Қ.Бекбаўлиевқа жүклениcин.

**Министр** **Р.Реимов**

Нөкис қаласы,
2021-жыл 23 - Апрель
112 -санлы

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI**
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI PREZIDENT, IJOD VA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI**
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI DAVLAT TEST MARKAZINING**

# QARORI

**2020-2021-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litseylar hamda kasb-hunar maktablarining o‘quvchilari o‘rtasida Fan olimpiadasining IV (respublika) bosqichini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4306-son qarori ijrosini ta’minlash hamda umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litseylar hamda kasb-hunar maktablarining o‘quvchilari o‘rtasida Fan olimpiadasining IV (respublika) bosqichini yuqori darajada o‘tkazish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi hamda Davlat test markazi **qaror qiladi:**

1. 2020-2021-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litseylar hamda kasb-hunar maktablari o‘quvchilari o‘rtasida Fan olimpiadasining (keyingi o‘rinlarda olimpiada deb yuritiladi) IV (respublika) bosqichi fanlar bo‘yicha ixtisoslashuvni kuchaytirish maqsadida hududlarda o‘tkazilishi belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

olimpiadaning IV (respublika) bosqichini hududlarda o‘tkazish jadvali **1-ilovaga** muvofiq;

olimpiadaning IV (respublika) bosqichini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Respublika tashkiliy qo‘mitasi tarkibi (keyingi o‘rinlarda Tashkiliy qo‘mita deb yuritiladi) **2-ilovaga** muvofiq;

olimpiadaning IV (respublika) bosqichini o‘tkazishda umumta’lim fanlari bo‘yicha baholash mezonlari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Tashkiliy qo‘mita:

olimpiadaning IV (respublika) bosqichi bo‘yicha hakamlar hay’ati tarkibi va apellatsiya komissiyasi tarkibini tasdiqlasin;

olimpiadaning IV (respublika) bosqichi adolatli va shaffof o‘tishini ta’minlasin;

Tashkiliy qo‘mitaga zarur hollarda olimpiadaning IV bosqichini yuqori darajada tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq tashkiliy-moliyaviy mazmundagi qarorlarni qabul qilish vakolati berilsin.

4. Xalq ta’limi vazirligining Fan olimpiadalari bo‘yicha iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash departamenti (U.Raxmonov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Iqtidorli yoshlarni saralash, akademik litseylar va ixtisoslashgan ta’lim muassasalari bo‘limi (A.Mamadaliyev), Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi Olimpiadalarni tashkil qilish sho‘basi (S.Bazarbayev) ga:

olimpiadani me’yoriy hujjatlar talablari asosida to‘g‘ri tashkil etilishi va o‘tkazilishini nazoratga olish;

olimpiadalar o‘tkazilishida amaliy yordam ko‘rsatish va nazorat qilish maqsadida hududlarga xizmat safariga yuboriladigan mas’ul xodimlar ro‘yxatini shakllantirish;

nazorat materiallari tuzilishi va olimpiadani nazorat qilish bo‘yicha mas’ul xodimlarning kerakli materiallar bilan 1-ilovada belgilangan muddatlarda joylarga yetib borishini ta’minlash;

hakamlar hay’ati va apellatsiya komissiyasi, auditoriya rahbarlari, nazoratchilar tarkibiga munosib nomzodlarni tanlash, hakamlar hay’ati tarkibiga oliy ta’lim muassasalari, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari, akademik litseylar va umumta’lim maktablaridan tajribali o‘qituvchilarni jalb etish;

bir hafta muddatda olimpiadani o‘tkazishga jalb qilingan mutaxassislar uchun o‘quv seminarlari tashkil etish;

olimpiadani tashkil etish va o‘tkazishga oid tegishli hujjatlar (qaydnoma, qaror, hisobotlar)ning hakamlar hay’ati a’zolari tomonidan to‘g‘ri, sifatli rasmiylashtirilishini va natijalar bo‘yicha tahliliy ma’lumotnomani tashkiliy qo‘mitaga taqdim etilishini ta’minlash;

test sinovlari o‘tkaziladigan fanlar, test topshirish tili va topshiruvchilar soni

haqidagi ma'lumotlarni 15-aprelga qadar Davlat test markaziga taqdim qilish vazifalari topshirilsin.

5. Davlat test markazining Test sinovlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bosh boshqarmasi (F.Mirzayev), Test texnologiyalarini rivojlantirish boshqarmasi (U.Dusnazarov)ga:

fanlar bo'yicha test topshiriqlarini shakllantirish;

test materiallarining belgilangan muddatda test o'tkaziladigan hududlarga yetkazish;

1-ilovaga ko'ra belgilangan muddatlar va joylarda olimpiada ishtirokchilari uchun test sinovlarini tashkil etish va shu kunning o'zida test natijalarini e'lon qilish vazifalari yuklatilsin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalari, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi olimpiadaning IV (respublika) bosqichi ishtirokchilarini barcha xavfsizlik choralarini ko'rgan holda belgilangan hududga yetib kelishini ta'minlasin.

7. Buxoro, Navoiy, Namangan, Samarqand viloyatlari xalq ta'limi boshqarmalari va Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasiga:

a) Davlat test markazining hududiy vakillari bilan birgalikda joriy yilning 15-apreliga qadar olimpiada o'tkazish uchun yetarli moddiy-texnik bazaga ega, ishtirokchilar kelishi qulay bo'lgan joyni belgilash;

olimpiadani xolis, adolatli va shaffof o'tkazilishini ta'minlash maqsadida, auditoriyalarda yoki umumiy o'tkazish joylariga kuzatuv kameralarini o'rnatish;

olimpiada ishtirokchilarini olimpiada o'tkaziladigan joyga kelib-ketishlarida harakat xavfsizligini ta'minlash;

b) olimpiada ishtirokchilarining yashashi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lgan joy tayyorlash;

olimpiada ishtirokchilarining olimpiada o'tkaziladigan kunlar ovqatlantirilishini tashkil etish;

olimpiada ishtirokchilari uchun homiylarning xayriya mablag'lari hisobidan esdalik sovg'alarini tayyorlash;

olimpiada ishtirokchilarining hududdagi diqqatga sazovor joylarga sayohatini tashkil qilish vazifalari yuklatilsin.



8. Xalq ta'limi vazirining Nazorat-huquqiy xizmati (I.To'rayev) Respublika tashkiliy qo'mitasi bilan hamkorlikda olimpiada jarayonlarining adolatli, shaffof o'tishi, korrupsiya holatlarining oldini olish yuzasidan nazorat o'rnatsin hamda qonun buzilishi holatlari bo'yicha amaldagi qonun talablariga muvofiq tegishli choralar ko'rilishini ta'minlasin.

9. Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligining axborot xizmatlari olimpiada jarayonlarini ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritib borsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari U.Sharifxodjayev, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri o'rinbosari U.Begimqulov, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi direktorining o'rinbosari A.Abdullayev, Davlat test markazi direktorining o'rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq ta'limi vaziri** **Sh.Shermatov**

Toshkent sh.,
2020-yil "14"- aprel,
31-99 -son

**Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri** **A.Toshqulov**

Toshkent sh.,
2020-yil "14"- aprel
[illegible] -son

**Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi direktori** **H.Umarova**

Toshkent sh.,
2020-yil "14"- aprel
38 -son

**Davlat test markazi direktori** **M.Karimov**

Toshkent sh.,
2020-yil "14"- aprel
04/kk -son